

NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARGA PENSIYA TAYINLASH MASALALARI

Axmedova Zilola Xamidovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogironligi bor bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlash tartibi, shakllari hamda qonuniy jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Pensiya, nogironlik, nafaqa, qonun, qaror.

KIRISH

Qonunchilikka ko'ra, mamlakatimizda nogironlik yoshdan qat'iy nazar belgilanadi. Shaxs nogiron deb e'tirof etilganida, mehnatga layoqatlilikning buzilishi darajasidan kelib chiqqan holda, nogironlikning birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlari belgilanadi.

I guruh nogironligi mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan va o'zgalarning yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga, II guruh nogironligi mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin o'zgalarga yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lmagan shaxslarga belgilanadi. III guruh nogironligi esa mehnat qilish qobiliyatini qisman yo'qotgan shaxslarga belgilanadi.

ASOSIY QISM

Nogironlik pensiyasi bu nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan pul to'lovi. To'lov miqdori va pensiya olish shartlari har bir mamlakatning o'z qonunida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 1-moddasining 1 qismiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar"[2]. Har bir inson davlat tomonidan pensiya olish huquqiga ega. Nogironlik pensiyasi qonunda belgilangan tartibda belgilanadi.

Nogironlik pensiyasi bir necha turdan iborat bo'ladi va uning tayinlanishi aynan kimga berilayotganiga bog'liqdir. Masalan, yetarlicha mehnat stajiga ega nogironligi bo'lgan shaxslarga tayinlanadigan pensiya, yetarlicha mehnat stajiga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan shaxslarga tayinlanadigan pensiya, AESdagi avariya tufayli nurlanishda aziyat chekgan, 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan fuqarolarga tayinlanadigan pensiya.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun quyidagi pensiya turlari nazarda tutilgan:

1. Mehnat jarayonida jarohat olgan yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari, ish stajidan qat'iy nazar pensiya olish huquqiga ega. Masalan, 24 yoshlik laboratoriya xodimi ish jarayonida kasb kasalligiga uchradi, ya'ni kimyoviy zaharlanish oqibatida mehnat qilish layoqatini yo'qotdi. Shu kunga qadar u 3 yillik ish stajiga ega bo'lgan. Uning qisqa ish stajiga qaramay nogironlik pensiyasini olsa bo'ladi.

2. Umumiy kasallik uchun nogironlik pensiyalari nogironlik paydo bo'lgan vaqtgacha bo'lgan ish stajiga qarab belgilanadi, ya'ni:

- 23 yoshgacha, 2 yillik ish staji hisoblanadi;
- 23 yoshdan 26 yoshga qadar, 3 yillik ish staji hisoblanadi;
- 26 yoshdan 31 yoshga qadar, 5 yillik ish staji hisoblanadi;
- 31 yoshdan 36 yoshga qadar, 7 yillik ish staji hisoblanadi;
- 36 yoshdan 41 yoshga qadar, 9 yillik ish staji hisoblanadi;
- 41 yoshdan 46 yoshga qadar, 11 yillik ish staji hisoblanadi;
- 46 yoshdan 51 yoshga qadar, 14 yillik ish staji hisoblanadi;
- 51 yoshdan 56 yoshga qadar, 17 yillik ish staji hisoblanadi;
- 56 yosh va undan oshganda, 20 yillik ish staji hisoblanadi.

To'liq ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik tufayli nogironligi bo'lgan shaxslarga mavjud ish stajiga muvofiq nogironlik pensiyalari tayinlanadi. Masalan, kishi 27 yoshga qadar ishlab kelgan va unda umumiy kasallik tufayli nogironlik paydo bo'lgan. Nogironlik pensiyasi tayinlanayotganda uning yoshiga qarab ish staji belgilanadi, yuqorida ko'rsatib o'tkanimizdek. Ya'ni agar u nogironligi aniqlangan paytda 27 yosh bo'lsa unga 5 yillik ish stajiga muvofiq nogironlik pensiyalari tayinlanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi rayosati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining qarori "Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash" to'g'risidagi qaror ilovasining 2-bandining 9 punktiga muvofiq: "Chernobil AES halokati oqibatida kasallanganligi yoki shikastlanganligi sababli qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadigan haqiqiy yetkazilgan zararni qoplaydigan miqdorda nogironlik pensiyasi tayinlanishi huquqiga ega"[2]. Chernobil AES halokati oqibatida ko'plab insonlar nurlanishdan zararlanishgan. Qonunchilki tomonidan belgilangan miqdorda AES oqibatida nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi belgilanadi. AES oqibatida nogironligi bo'lgan shaxslarga ham nogironligi oldinroq ko'rsatilgandek uchta guruhga bo'linadi.

Muhim bir narsani aytib o'tish kerakki, hozirgi qonunchilikka binoan 2011-yil 1-yanvardan boshlab nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga, hatto takroriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilgandan so'ng nogironlikning III guruhi belgilangan bo'lsa ham pensiya tayinlanmaydi va to'lash to'xtatiladi. Lekin Chernobil halokati oqibatida

III guruh nogironligini olgan shaxslardan tashqari, ular nogironlik pensiyasini olishni davom ettirishadi.[3]

• 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan fuqarolarga tayinlanadigan pensiya turlari ham mavjud. Masalan, shaxs 20 yoshga to'lgach umumiy kasallik tufayli nogironligi paydo bo'ldi. Bunday hollarda fuqarolarga pensiyalar bor ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Agar nogironligi bo'lgan shaxs uzrsiz sababga ko'ra belgilangan muddatda qayta ko'rikdan o'tish uchun TIEKga bormagan bo'lsa, unga pensiya to'lash to'xtatib turiladi. U yana nogironligi bo'lgan shaxs deb tan olingan taqdirda esa to'xtatib turilgan kundan e'tiboran, lekin ko'pi bilan bir oy oldin pensiyani to'lash qayta tiklanadi. Mazkur tartib nogironlik nafaqalarini to'lash uchun ham qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.ziyonet.uz
2. www.lex.uz
3. www.natlib.uz